

SHAXSGA YO'NALTIRILGAN JISMONIY TARBIYA TA'LIMI JARAYONIDA PEDAGOGIK MONITORINGNI AMALGA OSHIRISH OMILLARI

ФАКТОРЫ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО КОНТРОЛЯ В ПРОЦЕССЕ ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ

FACTORS OF PEDAGOGICAL MONITORING IN THE PROCESS OF PERSON-ORIENTED PHYSICAL EDUCATION

Qodirov Jo'rabek Mamatismonovich¹

¹Qodirov Jo'rabek Mamatismonovich

– Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti.

Аннотация

Tadqiqotning maqsadi: shaxsga yo'naltirilgan jismoniy tarbiya ta'limi jarayonida pedagogik monitoringni amalga oshirish omillarini tadqiq etish. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, tajriba-sinov, pedagogik monitoring, so'rovnoma, test, matematik statistik tahlil kabi tadqiqot va tahlil usullaridan foydalanilgan. Maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida pedagogik monitoring tarkibi va mazmunini takomillashtirish bo'yicha o'quvchilarning motivlari, maqsadlari, qobiliyatlari, faolligi va boshqa individual-psixologik xususiyatlari tadqiq etildi hamda xulosa va tavsiyalar ishlab chiqildi. Xulosa qilib aytganda, umumiy o'rta ta'lim muassasalarini o'quvtarbiya jarayonida shaxsga yunaltirilgan ta'limni amalga oshirish uchun tadqiq etadigan bo'lsak, umumiy o'rta ta'lim muassasalariga o'qishga kelgan o'quvchilarni dastlabki kunlardan boshlab ular uchun qulay va turli, ya'ni nafaqat o'quv, balki sinf va darsdan tashqari faoliyatga jalb qilish, ularda o'qish, bilim olishga bo'lgan qiziqishni shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Аннотация

Цель исследования: изучить факторы педагогического контроля в процессе личностно-ориентированного физического воспитания. В процессе исследования использовались такие методы исследования и анализа, как педагогическое наблюдение, сравнительный анализ, эксперимент-тест, педагогический мониторинг, анкетирование, тест, математико-статистический анализ. В статье изучены мотивации, цели, способности, активность и другие индивидуально-психологические особенности студентов с целью совершенствования структуры и содержания педагогического контроля в процессе личностно-ориентированного обучения на занятиях физической культурой в целом. средних общеобразовательных учреждений и разработаны выводы и рекомендации. В заключение, если мы изучаем общеобразовательные учреждения для реализации личностно-ориентированного воспитания в образовательном процессе, учащиеся, поступающие на обучение в общеобразовательные общеобразовательные учреждения, должны быть с первых дней подготовлены к ним удобно и разнообразно, т. е. желательно привлекать не только учебные, но и классные и внеклассные занятия, формировать в них интерес к учебе и обучению.

Abstract

The purpose of the research: to explore the factors of pedagogical monitoring in the process of person-oriented physical education. Research and analysis methods such as pedagogical observation, comparative analysis, experiment-test, pedagogical monitoring, questionnaire, test, mathematical statistical analysis were used in the research process. In the article, the motivations, goals, abilities, activity and other individual-psychological characteristics of students were studied in order to improve the structure and content of pedagogical monitoring in the process of person-oriented education in physical education classes in general secondary educational institutions. and conclusions and recommendations were developed. In conclusion, if we study general secondary educational institutions for the implementation of person-oriented education in the educational process, students who come to study in general secondary educational institutions should be prepared for them from the first days. convenient and diverse, that is, it is desirable to attract not only educational, but also classroom and extracurricular activities, to form an interest in studying and learning in them.

Kalit so'zlar: shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, monitoring, pedagogik monitoring, individual-psixologik, ta'lim-tarbiya, kuzatish, tahlil qilish, nazorat.

Ключевые слова: личностно-ориентированное обучение, мониторинг, педагогический мониторинг, индивидуально-психологический, обучение-тренинг, наблюдение, анализ, контроль.

Key words: person-oriented education, monitoring, pedagogical monitoring, individual-psychological, education-training, observation, analysis, control.

KIRISH

Respublikamizda ta'lim tizimini rivojlantirishning asosiy strategik yo'nalishlari aniqlandi, xorijiy tajribalar asosida ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish, innovatsion jarayonlarni faol qo'llab-quvvatlash, ta'limni rivojlantirishning me'yoriy asoslari ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son farmonida «Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish» va boshqa vazifalar ta'lim sohasidagi ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilandi. Natijada shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida pedagogik monitoringni amalga oshirish imkoniyatlari kengaytirildi.

Jahonda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida innovatsion rivojlanishning darajasini tezkor va ishonchli tahlil qilishga mo'ljallangan baholash tizimlari yaratilgan. Baholash tizimlari Xalqaro iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (Organisation for Economic Cooperation and Development (OECD)) tomonidan xalqaro reyting tizimlarida qo'llanilmoqda. Reyting tizimi INSEAD biznesmaktabi [1], Kornel universiteti va intellektual mulk Jahon tashkiloti tomonidan qo'llanilayotgan Global innovatsion indekslar uchun xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning pedagogik faoliyat konsepsiyasi va g'oyalari yuzasidan mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan S.Bagaeva, A.Baxmutskiy, I.Belevtseva, Ye.V.Bondarevskaya, I.Galmukova, S.V.Kulnevich, A.Makarov, A.Mayorov, S.Xoxlova, F.T.Fomenko, I.S.Yakimanskaya va boshqalarning ilmiy ishlarida joriy etish muammolari tadqiq etilgan.

Uzoq xorij mamlakatlari olimlaridan S.Anderson, B.Blum, N.Gronlund, L.Hoffmann, L.Kronbach, R.Linn, R.Stiggins H.Yulek va boshqalarning tadqiqotlarida ta'lim sifatini boshqarish, baholash va nazorat qilish masalalari yuzasidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida ta'lim menejmentining mustaqil kategoriyasi hisoblangan o'qitish sifati, monitoringini amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlari, zamonaviy pedagogikaning metodologik asoslari bo'yicha mamlakatimiz olimlaridan R.Djuraev, X.Ibragimov, U.Inoyatov, R.Karimov, Sh.Qurbonov, M.Ochilov, E.Seytxalilov, S.Turg'unov Sh.S.Sharipovlarning tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va o'zini rivojlantirishni tashkil etish monitoringini amalga oshirish yuzasidan B.R.Adizov, B.Ma'murov, S.Nishanova, R.G'.Safarova, E.A.Seytxalilov, K.Hoshimov, F.R.Yuzlikaev, E.Yuzlikaeva va boshqalar tadqiqot ishlari olib borishgan.

Foydalanilgan metodlar. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, tajriba-sinov, pedagogik monitoring, so'rovnoma, test, matematik-statistik tahlil kabi tadqiqot va tahlil usullaridan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Pedagogik monitoring – o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda kuzatuv, nazorat, tahlil qilish va baholash jarayonidir.

O'qituvchi shaxsga yo'naltirilgan o'quv bilish jarayonini tashkil etishning pedagogik-psixologik vositalari, usul hamda metodlarini yaxshi egallamog'i lozim. Buning uchun maktab ma'muriyati va uslubiy kengashlar o'qituvchini shaxsga yo'naltirilgan o'quv bilish jarayonini tashkil etish vositalari bilan qurollantirishga qaratilgan ilmiy metodik faoliyatni samarali yo'lga qo'yishlari, shuningdek, o'qituvchini shaxsga yo'naltirilgan o'quv-bilish jarayonini tashkil etishga tayyorlashning umumiy va xususiy maqsadlari aniqlab olinishi kerak.

"Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida pedagogik monitoringning tarkibi va mazmunini takomillashtirish" davlat ta'lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida hamda o'quv-tarbiya jarayoniga pedagogik monitoringni baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini takomillashtirilgan holda shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar vositasida o'tilayotgan fanlarning imkoniyatlaridan foydalangan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida, pedagogik monitoringni samarali rivojlantirishni ta'minlovchi pedagogik omillarni aniqlash va zarur shart sharoitlarni yaratish tadqiqotning maqsadi qilib belgilandi.

Tadqiqotimiz natijalariga ko'ra ushbu jarayonda quyidagi umumiy masalalar yechilishi taqozo etiladi:

– o'qituvchiga shaxsga yo'naltirilgan o'quv bilish jarayonida o'quvchining rivojlanishi, shaxsiy sifatлари, o'zlashtirilgan bilim hamda ko'nikmalarini tashxislashning eng qulay metodlari bilan birga metodikalarini o'rgatishga xizmat qiladigan mashg'ulotlar tizimini tashkil etish va muntazam o'tkazish;

– o'qituvchini shaxsga yo'naltirilgan o'quv bilish jarayonida o'quvchini rivojlantirishga qaratilgan o'z faoliyatini muntazam tahlil qilib, kamchiliklarini bartaraf etishga odatlantirish.

Ko'zda tutilgan maqsadga erishish uchun pedagogik faoliyatning mavjud qirralarini yaxshi bilib olish kerak. O'qituvchidagi ruhiy o'ziga xoslik va xususiyatlarni markazlashtirish, bir nuqtaga jamlash, pedagogning kasbiy mehnatini integrallashtirish, izchil tizimga solish imkonini beradi. Bu mehnatning barcha o'ziga xos qirralari, jihatlari va parametrlarini aniqlashga yordamlashadi. O'qituvchining xuddi mana shu jihatlari uning kasbiy faoliyati takomillashuviga ko'maklashadi.

Shuning uchun ham, shaxsga yo'naltirilgan o'quv-biluv jarayonini amalga oshirishga tayyorlash uchun, fikrimizcha, o'qituvchilar oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- o'qituvchilarda shaxsga yo'naltirilgan o'quv-biluv jarayonining maqsadini aniqlash ko'nikmasini hosil qilish, bunda o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari va imkoniyatlarini alohida hisobga olishga erishish;

- o'quvchining hayotiy ehtiyojlari va qadriyatlaridan kelib chiqqan holda faoliyatni tashkil etish;

- o'qituvchilarda rivojlanish vaziyatlarini modellashtirish tajribasini shakllantirish;

- shaxsga yo'naltirilgan o'quv-biluv jarayoni mazmuniga insonparvarlikka oid bilimlar, tushunchalar, tajribalarni singdirish;

- o'zining va o'quvchisining tajribalaridan ta'lim mazmunining uzviy qismi sifatida foydalana olishga erishish;

- zamonaviy ta'lim texnologiyalari, o'qitish shakllari vositasida o'qituvchi faoliyatining dolzarbligini oshirish, o'yin, muammoli o'qitish metodlaridan foydalanish.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tizimini tashkil etuvchi omil sifatida o'quvchi, uning ehtiyojlari, motivlari, maqsadlari, qobiliyatlari, faolligi va boshqa individual psixologik xususiyatlarini metodologik tan olishga asoslanadi. Bunda o'qitish jarayonida o'quvchilarning jins-yosh, individual-psixologik va maqomi kabi xususiyatlarni maksimal darajada hisobga olish nazarda tutiladi. Hisobga olish ta'lim mazmuni, ta'lim dasturlarining variativligi, o'quv-fazoviy muhitni tashkil etish orqali amalga oshiriladi. O'qituvchilar o'quv-biluv jarayonining mazmunidan kelib chiqqan holda, o'z pedagogik faoliyatlarining maqsadlarini aniq bayon eta olishlari kerak.

Faoliyatni tashkillashtirish va bajarishda funksiyalarni taqsimlash jarayonida ushbu xususiyatlarning hisobga olinishi uning samaradorligini ancha oshiradi. O'quvchilarni ham o'quv, ham o'qishdan tashqari jarayonini tashkil etib, o'qituvchi ular bilan doimo muloqot qiladi, nafaqat ijtimoiy funksiyadek, balki aniq shaxs sifatidagi o'qituvchining o'quvchilar bilan muloqoti pedagogik faoliyatning tarkibiy qismidir.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etishda monitoring faoliyatini maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish uchun o'qituvchilar shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asoslarini o'zlashtirgan bo'lishlari va bu masala ta'lim muassasalari rahbarlari tomonidan doimiy nazorat qilib borilishi kerak.

Pedagogik monitoring o'quv-tarbiyaviy jarayonning holati va natijaviyligini kuzatish sifatida tushuniladi, bunda baholash va nazorat qilish, miqdor va sifat jihatdan ifodalangan o'quv-tarbiyaviy jarayonning natijaviyligini boshqarish nazarda tutiladi.

Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqqan holda, biz umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarning shaxsga yo'naltirilgan ta'lim mazmun va mohiyati, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida pedagogik monitoringga quyidagicha ta'rif berdik.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – shaxsning rivojlanishi, o'ziga xos xususiyatiga maksimal darajada yo'naltirilgan ta'lim jarayoni.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida pedagogik monitoring tizimini shakllantirish muhim ekanligini, o'quvchilarning bilimini baholashda monitoring tizimini shakllantirishdagi imkoniyatlari, umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarida ta'lim jarayonidagi pedagogik monitoring tizimini shakllantirish texnologiyasi, o'quvchilarda o'quv jarayoni pedagogik monitoring tizimini shakllantirishga doir mezonlar ishlab chiqilib, modeli yaratilsa, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni monitoring tizimini shakllantirish, samaradorligini ta'minlash muhim omillardan biridir.

XULOSA

Yuqoridagi fikrlarni tahlil qilib, quyidagi xulosalarga keldik:

1. Pedagogik monitoring o'quv-tarbiyaviy jarayonning holati va natijaviyligini kuzatish sifatida tushuniladi, bunda baholash va nazorat qilish, ya'ni jarayonni hamda miqdor va sifat jihatdan ifodalangan o'quv-tarbiyaviy jarayonning natijaviyligini boshqarish nazarda tutiladi.

2. O'quvchining shaxsiy sifatlari va qobiliyatlarini shakllantirish hamda rivojlantirish masalasini hal etishda shaxsiy-faoliyatli yondashuvning shaxsiy komponenti hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayoniga shaxsga yo'naltirilgan ta'limda monitoringni joriy etish o'rganiladi.

3. Pedagogik monitoring asosida maqsadga yo'naltirilgan, tashkillashtirilgan kuzatuv yotadi, uning tarkibiga bir-biri bilan bog'liq bo'lgan elementlar mosligi kiradi, ularning tarkibi kuzatuv obyektining tarkibi bilan aniqlanadi.

4. Pedagogik monitoring tizimingning ta'lim muassasasi strukturasi ichiga kiritishni boshqarish o'quv muassasalarini innovatsion ish rejimiga o'tish hisoblanadi. Innovatsion jarayon orqali maktab rivojlanishi amalga oshadi. Bunda innovatsion jarayon kompleks faoliyat hisoblanadi va u o'zlashtirish, qo'llash, yangilikni tarqatish faoliyatini bajaradi va shu bilan maktab rivojlanishini shartlaydi.

5. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchi shaxsidagi mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlikni his etish, tanqidiy fikrlash kabi sifatlarini tarbiyalaydi. Bunda o'quvchini ta'lim tizimiga moslashtirmay, balki o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlanishi uchun imkon beriladi, uning o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil o'qish, o'zligini namoyon etish, faollashtirish xususiyatlari asosida anglash, mushohada qilish, o'z amaliy faoliyatida sinab ko'rish, yangi g'oya va fikrlarni bildirish, mavjud muammolar yechimining samarali yo'llarini qidirish uchun erkinlik berish, o'quvchining ijodiy, tanqidiy tafakkurini rivojlantirish uchun sharoit yaratiladi. Har qanday o'quvchi o'ziga xos takrorlanmas tabiati, xarakter xususiyatini faollashtirish, namoyish qilishga intiladi.

Bu jarayonda o'quvchi o'z qobiliyatlarini rivojlantirishi, mustaqil fikrlashi, tanqidiy fikrlashi va o'z ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun ta'lim muassasalarida shaxsga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishda o'qituvchi o'quvchilar uchun shunday muhit yaratishi kerakki, har bir o'quvchi bilim olishdagi xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olib, o'z-o'zini namoyon qila olsun. Ta'lim jarayoni nafaqat axborot, balki rivojlantiruvchi ham bo'lishi kerak. O'quvchining shaxsga yo'naltirilgan o'quv jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etish va uni muntazam nazorat qilish (ya'ni monitoring faoliyati) ta'lim sifati va samaradorligini oshiradi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, umumiy o'rta ta'lim muassasalarini o'quv tarbiya jarayonida shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish uchun tadqiq etadigan bo'lsak, umumiy o'rta ta'lim muassasalariga o'qishga kelgan o'quvchilarni dastlabki kunlardan boshlab ular uchun qulay va turli, ya'ni nafaqat o'quv, bo'sh vaqtlarini darsdan tashqari faoliyatga jalb qilish, ularda o'qish, bilim olishga bo'lgan qiziqishni shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Багаева С. Организация мониторинга качества знаний старшеклассников в процессе использования инфокоммуникационных технологий в общеобразовательной школе: Дис. канд. пед. наук. - Карачаевск, 2006.
2. Бахмутский А. Мониторинг школьного образования: проблемы решения. - СанктПетербург: «КАРО», 2007.
3. Хохлова С. Мониторинг качества школьного образования: Дис. канд. пед. наук. - Тюмень, 2003.
4. Якиманская И.С. Личностно-ориентированное обучение в современной школе. Вып. 2. - М., 1996.
5. Каримов Р.Қ., Умумий ўрта таълим давлат таълим стандарти мониторингини таъминлашнинг педагогик асослари. Пед. фан. ном. диссер - Т., 2006.
6. Юзликаева Э.Р. Педагогический мониторинг в личностно-ориентированном образовательном процессе в системе высшего образования. Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук, 2007.